

ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA FOLKLOR OHANGLARI

Axmedova Gulzoda Akbarjon qizi,

O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Eshqobil Shukur she'riyatida xalq og'zaki ijodiga mansub marosim qo'shiqlarining aks etishi masalasiga bag'ishlangan. Tadqiqotda shoirning "Sholi qo'riqchisi", "Ruhim", "Sog'in.Befarzand ayol", "Buzoqning o'limidan so'ng", "Ko'pkari" kabi she'rlari va "Mengim momoning yo'qlovi" marsiyasida keltirilgan xalq qo'shiqlaridan parchalar sharhlanadi. She'rlar orqali xalqning orzu va armonlari hamda undagi o'ziga xos ohanglar asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: "Sholi qo'riqchisi", "Ruhim", "Sog'in.Befarzand ayol", "Buzoqning o'limidan so'ng", "Ko'pkari", "Mengim momoning yo'qlovi" marsiyasi, folklor, she'rlar, ohang.

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме отражения обрядовых песен, относящихся к устному народному творчеству, в поэзии Эшқобила Шукура. В исследовании анализируются отрывки из народных песен, приведённые в таких стихотворениях поэта, как «Страж рисового поля» («Sholi qo'riqchisi»), «Душа моя» («Ruhim»), «Скучая. Бездетная женщина» («Sog'in. Befarzand ayol»), «После смерти телёнка» («Buzoqning o'limidan so'ng»), «Купкари» («Ko'pkari»), а также в марсии «Плач Менгим-момо» («Mengim momoning yo'qlovi»). Через анализ стихотворений раскрываются мечты и чаяния народа, а также присущие им своеобразные интонации.

Ключевые слова: «Страж рисового поля», «Душа моя», «Скучая. Бездетная женщина», «После смерти телёнка», «Купкари», марсия «Плач Менгим-момо», фольклор, стихотворения, интонация.

Annotation. This article is devoted to the issue of the reflection of ritual songs belonging to oral folk literature in the poetry of Eshqobil Shukur. The study analyzes excerpts from folk songs presented in the poet's poems such as "Sholi qo'riqchisi" (The Rice Guardian), "Ruhim" (My Soul), "Sog'in. Befarzand ayol" (Longing. A Childless Woman), "Buzoqning o'limidan so'ng" (After the Death of the Calf), "Ko'pkari", as well as in the elegy "Mengim momoning yo'qlovi". Through these poems, the dreams and sorrows of the people and their distinctive melodic tones are substantiated.

Keywords: "Sholi qo'riqchisi", "Ruhim", "Sog'in. Befarzand ayol", "Buzoqning o'limidan so'ng", "Ko'pkari", "Mengim momoning yo'qlovi" elegy, folklore, poems, melody.

Kirish. Shoir, yozuvchi, adabiyotshunos, munaqqid va boshqa soha mutaxassislari bo'lsin barcha kishilar o'ziga xos ish uslubiga ega. Uslub — ijodkor shaxsiyatini aks ettiruvchi va o'zgalardan farq qiluvchi xususiyatdir. Adabiyotshunoslik lug'atida uslub terminiga quyidagicha izoh berilgan: "Uslub (ar. uslub – tartib, usul, yo'sin, tarz) – poetikaning muhim kategoriyalaridan biri; badiiy asarning u yoki bu tarzda shakli qurilishini belgilovchi umumiy prinsip. U antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. Unda namoyon bo'luvchi ijodiy individuallik badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari – poetika) birdek ko'zga tashlanadi. Ya'ni u badiiy shaklning unsuri emas, balki unga xos xususiyatdir. U asardagi shakl unsurlarining o'z holicha emas, balki muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikka birikishini ta'minlaydi, har bir unsurining butun tarkibidagi mohiyati va funksiyasini belgilaydi." [1. 341.] Demak, uslub ijodkorning individualligini belgilovchi va uning shaxsi bilan bog'liq tushuncha

ekan. Eshqobil Shukur ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bolaligida bobo-buvilaridan doston va ertaklar tinglab, ulg'aygan shoir o'z she'rlarida xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanadi. Zero, adibning o'zi ta'kidlaganidek, " Xalq qo'shiqlari, afsonalar, rivoyatlar, matallar, iboralar qanchalar qadri. Chunki ularda bobolarimiz va momolarimizning ruhi va so'zi bor. Shuning uchun oddiy ibora ham avliyo hassasining chetidan ungan kurtakday taassurot beradi... Xalq og'zaki ijodining kuchi nimada? Har qanday g'oya dastlab informatsiya shaklida aytilgan, lekin badiiy yo'l bilan odamlarga singdirilgan. Biz ertaklar ichida yashaganmiz. Ertaklar, afsonalar, dostonlarda xalq o'zining ezgu g'oyalarini badiiy yo'l bilan ifoda qilgan. Shunday qilinsa, singdirish qulay bo'ladi, degan. Aslida dinlarda ham shu. Osmon kitoblari – Qur'on, Injil naqadar ulug' badiiyat bilan yo'g'rilgan. Xalq og'zaki ijodida biror bir obraz yo detalning majburlab tiqishtirilganini ko'rmaysiz. Hammasi samimiy va tabiiy. Men o'zimni folklorimizning bilimdoni deb ayto olmayman, men uning muxlisiman... Men xalq og'zaki ijodini tayanch tutdim". [2. 2019. 2-son] . Xalq og'zaki ijodi ya'ni folklor xalq tomonidan ijro etilgan, og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan asarlardir. Unga mehnat qo'shiqlari, ertak, doston, maqol, matal, afsona, rivoyat va topishmoq kabi janrlar kiradi.

Adabiyotlar tahlili. Eshqobil Shukur lirikasida ham marosim qo'shiqlarida ijro etilgan ayrim iboralar, xalq o'yinlari, dostonlar, qadimiy bayramlar, hikmatli so'zlar, maqollar va rivoyatlar uchraydi. Xususan, "Sholi qo'riqchisi", "Ruhim" , "Buzoqning o'limidan so'ng" , "Sumbula", "Chimildiq", "Sog'in. Befarzand ayol" kabi she'rlarida marosim qo'shiqlarida uchraydigan aytimlar o'z aksini topgan. Shoirning "Sholi qo'riqchisi" nomli she'ri quyidagi misralar bilan boshlanadi:

"Chumchuq, chumchuq, sho'r tumshuq,

Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!

Tumshug'ingni toshga tut,

Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!

Sholipoya ko'llagan —

Osmonlar cho'kib yotar,

Tillarang baliqchalar

Yulduzga bo'kib yotar.

Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!

Shamolga zabon berib,

Sholipoya chayqalar...

She'ning sarlavhasi chumchuqqa nisbatan ishlatilgan bo'lib, suv qo'yilgan sholipoyada yulduzli osmon aksining ko'rinishi , suvdagi baliqlar tasviri , shabadali ob-havoda sholipoyaning chayqalishi juda go'zal tarzda yoritilgan. "Hoyyo-huyt" birikmasi esa mehnat qo'shiqlariga mansub , "Qo'shchi qo'shig'i" tarkibiga kiradi. She'ning keyingi misralariga e'tiborimizni qaratamiz:

Suvning ohangin terib

*Kuylab ketar baqalar.
Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!
Keng uyning bekasiday
Boshda tutlar qappaygan,
Tuyaning o'rkachiday
Chetda chayla so'ppaygan.
Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!
Kun iplari uzilar
Nurdan qo'pchir qishloqlar.
Qizlar kabi suzilar,
Bo'yga yetgan boshhoqlar.
Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!"*

[3 .5]. Daladagi chaylani "tuyaning o'rkachi" ga va tebranayotgan boshhoqlarni "qizlardek suzilishi"ga qiyoslanishi ham she'rning badiiy qimmatini yanada oshirgan. Suvning sharqiroq ohangiga mos ravishda baqalarning kuylashi ham jonli tabiat manzarasi desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ruhim" nomli she'rda esa "Ahay-aha-hay! " jumlasini qo'llangan bo'lib, u ham *xalq qo'shiqlari tarkibiga mansub*.

*" Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!
Men qushlarning tushlarida ko'rinay,
Men tushlarning qushlarida ko'rinay.*

*Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!
Men tillarning gullarida ko'rinay,
Men gullarning tillarida ko'rinay.*

*Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!
Men to'ylarning kuylarida ko'rinay,
Men kuylarning to'ylarida ko'rinay. "*

[3. 20.]. "Har biri uch misradan iborat to'rt bandli ushbu she'rda bandlar «Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!» deb boshlanadi va she'r «Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!» degan qo'shimcha satr bilan tugallanadi. Baxshilar dostonlarni jo'shib kuylaganida «Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!» deb hayqiradi. «Ruhim»da xalq og'zaki ijodiga xos ana shu jo'shqinlik ifodalanadi. "She'riyat – qalb oynasi" deyiladi. Ushbu she'rda shoir ruhidagi g'alayon, istaklarni baxshilar singari jo'shib izhor qiladi. She'r satrlaridagi o'ynoqi ohang kishini zavqlantiradi. Shoirning qushlarning tushlarida, tushlarning qushlarida, to'ylarning kuylarida, kuylarning to'ylarida, ko'zlarning so'zlarida, so'zlarning ko'zlarida ko'rinay degan istaklari she'rga o'zgacha shukuh bag'ishlaydi." [4 .164.] Shuningdek, she'rdagi xalq qo'shiqlarida uchraydigan aytimlardan parcha va qofiyadosh so'zlar she'rning ohang

ustuvorligini yanada oshirgan. Shoirning "Sog'in. Befarzand ayol" sarlavhali she'ri ham mehnat qo'shiqlari sirasiga kiradi.

"Xo'o'sh-xo'o'sh... Xo'o'sh...

Govmishim, iysin suting,

Bag'rimda bo'g'ma tutun,

Oq siynamning ostida

Qobirg'alarim o'tin.

...Xo'o'sh... xo'sh... xo'o'sh...

Bir tirnoqqa zor bo'ldim,

Egasiz mozor bo'ldim,

Baxti toshga boylangan,

Tosh kabi nochor bo'ldim.

Xo'o'sh... xo'sh... xo'o'sh...

Quyun o'ynar izimni,

G'am qovurar ko'zimni.

Govmishim, seni emas,

"Xo'o'sh-xo'o'sh"layman o'zimni.

Xo'o'sh... xo'sh... xo'o'sh..."

[5. 45]. She'rda uchragan "Xo'o'sh...xo'sh...xo'o'sh" undovi sigir yoki ho'kizlarni tinchlantirish yoki to'xtatish maqsadida aytilgan. Yuqoridagi misralarda befarzand ayol obrazi sigirini tinchlantirish orqali sog'ish holati aks ettirilgan. She'rdagi "Bag'rimda bo'g'ma tutun", "Bir tirnoqqa zor bo'ldim", "Egasiz mozor bo'ldim", "Tosh kabi nochor bo'ldim", "G'am qovurar ko'zimni" kabi misralar befarzand ayolning dil tug'yonlari va iztiroblarini ifodalagan. Ushbu she'rning mantiqiy davomi o'laroq shoirning "Buzoqning o'limidan so'ng" nomli she'rida ham mehnat qo'shiqlariga mansub "ho'sh-ho'sh" undovi qo'llangan.

" Uch kunlik buzog'i o'lgan sigirni

Sog'ib olayotir befarzand xotin.

Tuyog'i zirqirar yig'laydi jonvor,

"Xo'sh-o'sh"lab kuylaydi qayg'uli xotin:

"Kuvshab yegin o'tingni ,

Iyib bergin sutingni.

Sening bolang o'libdi,

Xurmo bolang bo'libdi.

Xo'sh-xo'sh , enam-ov , xo'sh."

[5. 84]. Bu she'rda ham ayol obrazi farzandsizlikdan aziyat chekadi. "Sog'in. Befarzand ayol" she'ridan farqi she'r sarlavhasidan ma'lum . Ayol o'zini va sigirini

yupatib sog'moqda. "... "Uch kunlik buzog'i o'lgan sigirni Sog'ib olayotir befarzand xotin" satrlariyoq o'quvchini loqayd qoldirmaydi, hushyor torttiradi, davomini kutadi, davomi esa mungli, ta'sirli: "Qayg'uni yamlamay yutadi xotin, Alamni kavshab yeb yotadi sigir. Tomorqada esa...ekin ichidan Bitta bola izlab ivirsiydi er". Oxiri yanada ko'proq qayg'uli: "Ikki jonvor qalbi chayilgan sutni O'g'ri mushuk ichib ketdi o'sha tun".[6. 2016, 7-сентябрь. № 36]. "She'rda ayol va er obrazining farzandsizligi yetmagandek, buzog'ining o'limi g'am - qayg'usini ikki hissa oshiradi. She'rda "Tuyog'i zirqirar yig'laydi jonvor" misralari sigirning o'lgan buzog'iga nisbatan achinish hissini namoyon qilgan. Shoirning "Mengim momoning yo'qlovi" marsiyasini mutolaa qilganimizda xalq og'zaki ijodining namunasi ekanligi so'zlarning ohangidan ham yaqqol sezilib turadi:

"Tog'dan toshlar qulaydi,

Ko'zdan yoshlar qulaydi,

Qismatning qora qo'li

Peshonangni silaydi.

Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.

Uvv!.. Uv!!!

She'rdagi Mengim momo obrazi inqilob davrida vatandan ketgan va xorijda o'z-o'ziga yo'qlov aytib dunyodan o'tgan ayol. Shoir Vatan sog'inchida o'rtanib, yurtga qaytolmay, o'zga ellarda qolgan Mengim momoning ko'z yoshlarini "tog'dan toshning qulashi"ga mengzagan.

Huv tog'lardan narida,

Qirlarda lola-shamlar,

Maysalarning bag'rida,

Durday yonar shabnamlar.

Boysuntog'ning boshida

Qorlari yaltiraydi.

Qoyalarning ming yillik

Suvlari sirqiraydi.

Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.

Uvv!.. Uv!!!".

[3. 18]. She'rda tabiat tasviri ham go'zal tashbehlar orqali ifodalangan. Masalan, qirlardagi lolaning "sham"ga o'xshatilishi, maysalardagi shabnamlarning durday tovlanishi, Boysuntog'ning qorlari yaltirashi o'ziga xos tarzda tasvirlangan. She'rning "Qoyalarning ming yillik Suvlari sirqiraydi" bandi esa Mengim momoning g'am-qayg'usiga muqoyasa qilingan. Ijodkorning "Ko'pkari" nomli she'riga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, unda milliy xalq o'yini aks etgan:

"Hayt!" — dedi, uloq ketdi,

O'rtada taboq ketdi.

Nogahon el gurillar,

Gurillaydi chang-to'zon.

Yer oynaday zirillar,

Otlarga qoldi maydon."

[3. 6]. "Ko'pkari" she'rida milliy o'yinimiz jarayoni, ot, chavandoz mahorati ta'sirli chiziladi. Ko'p taboq olgan chopag'on ot ko'zikib o'lib qoladi, ichdan yig'lagan chavandoz nazdida saraton muzlaganday, quyosh qorga botganday, qosh ila qoboq, Shom ila Iroq ketgandek tuyuladi. Kulminatsion nuqta, nishonga tekkan o'q oxirgi to'rt satrda: "Endi g'amli eriga so'z aytmasdan botinib, olti oy aza tutar chavandozning xotini". Xalqimiz orasida "ko'z tegmoq" iborasi mavjud bo'lib, bironing suqlanib qarashi natijasida kishilar yoki hayvonlarga zarar yetadi. "Ko'pkari" she'rida ham shu holat tasvirlangan.

Xulosa. Eshqobil Shukur lirikasi xalq ruhiyati, milliy qadriyatlar va folklor an'analari bilan chambarchas bog'liq. Bunday she'rlarda maqol, matal, afsona, rivoyat, qo'shiq, marosim ohanglari va xalqona iboralar orqali asarning ta'sirchanligi kuchayadi. Shoir folklor elementlaridan foydalanish orqali she'rga tabiiylik, samimiylik va milliy ruh bag'ishlaydi. Natijada asarlar nafaqat badiiy jihatdan boyiydi, balki xalqning dunyoqarashi, urf-odati va ma'naviy merosini ham yorqin aks ettiradi. Shuningdek, E. Shukur xalq og'zaki ijodi manbalariga tayangan holda bitgan she'rlarini mutolaa qilish orqali nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki qadimiy va boy tariximizning asrlar sinovidan o'tgan an'ana va qadriyatlarini yosh avlod qalbi va ongiga noziklik bilan singdirishdek muhim ma'naviy vazifani ham ado etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013. – 408 б.
2. Эшқобил Шукур. Чимдим ҳайрат, чимдим ҳасрат. //Тафаккур. 2019. 2-сон.
3. Шукур Э. Сочлари сумбул-сумбул: Шеърлар. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. - 64 б.
4. Улуғов А. Қалб қандили: адабий-танқидий мақолалар. Адабий портрет. Адабий-танқидий очерк. - Тошкент: Akademnashr, 2013. - 288 б.
5. Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –378 б.
6. Умиров С. Ашъорлари эш, қобил иждокор // Хуррият. –Тошкент, 2016, 7-сентябрь. № 36.